
BAYRAM TADBIRIDA ONALARGA EHTIROM KO'RSATILDI

Ayni kunlarda barcha shahar va tumanlarda "Onalarga ehtirom" nomli festival doirasida tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Toshloq tumanida ham ushbu festival doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, onalarga bo'lgan hurmat-ehtiromni ifoda etgan uchrashuvlar ko'tarinkilik bilan tashkil etilmoqda.

Bugun tuman xotin-qizlar bo'limi tashabbusi bilan o'tkazilgan "Onalarga ehtirom" nomli bayram tadbiriga mahallalarda yashovchi, uzoq yillardan buyon el koriga kamarbasta bo'lib, bugungi kunda keksalik gashtini surib kelayotgan onalarimiz taklif etildi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar jamiyatdagi barcha ayollar davlatimiz e'tibori va g'amxo'rligida ekanligini ta'kidladilar.

To'kin dasturxon atrofida yangragan dil izhorlari sho'x kuy-qo'shiqlarga ulandi. Baxtiyor chehralarda bu kabi e'tibor va mehrdan minnatdorlik, bugungi dorilomon kunlarga shukronalik, mamnunlik hissi tuyildi.

2024-06-12 16:53:34